

**GRUZIYA VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KONSTITUTSIYAVIY
ODIL SUDLOV MASALARINING QIYOSIY TAHLILI**

*Isoqov Alisher Raxmatullayevich
Qashqadaryo viloyati adliya boshqarmasi
boshlig'i birinchi o'rinnbosari*

Annotatsiya: ushbu maqolada Gruziya va O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyani muhofaza etuvchi va uning asosida konstitutsiyaviy odil sudlovnii amalga oshiruvchi Konstitutsiyaviy sudlar vakolati va faoliyati qiyosiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiyaviy odil sudlov nazariyasi, konstitutsiyaviy nazorat, qonuniylik, siyosiy partiya, konstitutsiyaviy sud amaliyoti.

**СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВОПРОСОВ КОНСТИТУЦИОННОГО
ПРАВОСУДИЯ В ГРУЗИИ И РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

Управление юстиции Кашкадарьянской области
первый заместитель руководителя
Исаков Алишер Рахматуллаевич

Аннотация: в данной статье проводится сравнительный анализ полномочий и деятельности конституционных судов Грузии и Республики Узбекистан, которые защищают конституцию и осуществляют на ее основе конституционное правосудие.

Ключевые слова: теория конституционного правосудия, конституционный контроль, законность, политическая партия, практика конституционного суда.

Dunyoga nazar tashlaydigan bo'lsak, har qanday rivojlangan davlatning huquqiy asosi sifatida, albatta, ushbu davlatga mansub bo'lgan milliy konstitutsiyalarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin, Shimoliy kavkazda joylashgan milliy huquq tizimi bo'yicha dunyodagi eng ko'zga ko'ringan Gruziya Respublikasi konstitutsiyasi ham ana shunday konstitutsiyalarga o'xshash konstitutsiyadir.

Milliy konstitutsianing huquqiy himoyasi esa konstitutsiyaviy odil sudlov nazariyasida konstitutsiyalar aro kuchli mexanizmning tarkib topganligidir. Gruziya Konstitutsiyasining huquqiy himoyasi esa, Gruziya respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan amalga oshiriladi. Gruziya konstitutsiyasi Konstitutsiyaviy sud faoliyatini tartibga solib turadigan me'yoriy hujjatdir.

1995-yil 24-avgustda Gruziya parlamenti Gruziya Konstitutsiyasini qabul qildi. Konstitutsiyada demokratik ijtimoiy tuzum, iqtisodiy erkinlik, huquqiy va ijtimoiy davlat barpo etish, davlat mustaqilligi va boshqa xalqlar bilan tinch-totuv

munosabatlarni mustahkamlash, insonning umume'tirof etilgan huquq va erkinliklarini ta'minlash irodasi e'lon qilindi

Gruziya Konstitutsiyasi gruzin xalqi davlatchiligining ko'p asrlik an'analaridan va 1921-yilgi Gruziya Konstitutsiyasining tarixiy-huquqiy me'rosidan kelib chiqadi. Konstitutsiyada davlat hokimiyatining hokimiyatlar bo'linishi prinsipi asosida amalga oshirilishi mustahkamlangan.

Konstitutsiyaviy sud kompetensiyasiga to'xtaladigan bo'lsak,

Gruziya Konstitutsiyaviy sudi konstitutsiyaviy nazoratning sud organi bo'lib, konstitutsiyaviy qoidalarga rioya qilish, hokimiyatlar bo'linishiga asoslangan davlat institutlarining konstitutsiyaviy asoslari faoliyatini ta'minlash, konstitutsiya darajasida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Konstitutsiyaviy sud 1996-yilda tashkil etilgan. Uning tashkil etilishi va faoliyatining huquqiy asosi Gruziya Konstitutsiyasi, Gruziyaning "Gruziya Konstitutsiyaviy sudi to'g'risidagi" organik qonuni va Konstitutsiyaviy sudning Reglamentidir.

Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari:

Gruziya Konstitutsiyaviy sudi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda;

a) jismoniy, yuridik shaxs yoki xalq himoyachisi tomonidan berilgan shikoyat asosida Konstitutsianing ikkinchi bobida mustahkamlangan insonning asosiy huquqlariga nisbatan normativ hujjatning Konstitutsiyaga muvofiqligi masalalarini ko'rib chiqadi;

b) Gruziya Prezidenti, parlament a'zolarining kamida beshdan bir qismi yoki hukumat tomonidan berilgan shikoyat asosida normativ hujjatning konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qiladi;

c) umumiy sudlar taqdimnomasi asosida muayyan ishni ko'rishda umumiy sud tomonidan qo'llanilishi kerak bo'lган va Konstitutsiyaga zid kelishi mumkin bo'lган normativ hujjatning konstitutsiyaga muvofiqligini sudning asosli taxminiga ko'ra ko'rib chiqadi;

d) Gruziya Prezidenti, Parlament, Hukumat, Adliya Oliy Kengashi, Bosh prokuror, Milliy bank boshqaruvi, Bosh auditor, muxtor respublikaning xalq himoyachisi yoki oliy vakillik yoki ijroiya organi tomonidan berilgan shikoyat asosida tegishli organning vakolatlari bo'yicha nizolarni ko'rib chiqadi;

e) Gruziya Prezidenti, Hukumat yoki parlament a'zolarining kamida beshdan bir qismi tomonidan berilgan shikoyat asosida xalqaro shartnomalarning konstitutsiyaga muvofiqligini ko'rib chiqadi;

f) siyosiy partiya faoliyatining konstitutsiyaga muvofiqligini yoki Gruziya Prezidenti, hukumati yoki parlament a'zolarining kamida beshdan bir qismi tomonidan berilgan shikoyat asosida ushbu siyosiy partiya taklifiga binoan saylangan

vakillik organi a'zosining vakolatlarining tugatilishini ko'rib chiqadi;

g) Parlament a'zolarining kamida beshdan bir qismi yoki tegishli shaxs tomonidan berilgan shikoyat asosida parlament a'zosining vakolatlarini tan olish yoki muddatidan oldin tugatish to'g'risidagi parlament qarorining Konstitutsiyaga muvofiqligini ko'rib chiqadi;

h) referendumlar yoki saylovlarni tartibga soluvchi normalar bilan bog'liq nizolarni, shuningdek, ushbu normalar asosida o'tkaziladigan yoki o'tkazilishi kerak bo'lgan referendumlar va saylovlarning konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi nizolarni ko'rib chiqadi;

i) mahalliy davlat hokimiyati vakillik organi tomonidan berilgan shikoyat asosida Konstitutsiyaning 9-bobiga nisbatan normativ hujjatning Konstitutsiyaga muvofiqligini ko'rib chiqadi;

j) Konstitutsiyada belgilangan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi;

k) Konstitutsiyaviy sud o'z vazifalarini qonuniylik, kollegiallik, oshkoraliq, tortishuv va taraflarning teng huquqliligi, mustaqillik, daxlsizlik va Konstitutsiyaviy sud a'zolarining butun vakolat muddati davomida doimiyligi tamoyillari asosida amalga oshiradi.

Gruziya Konstitutsiyaviy sudi to'qqiz sudyadan iborat Konstitutsiyaviy sud a'zolari, ulardan Konstitutsiyaviy sud raisi, ikkta vitse-prezident va Konstitutsiyaviy sud kotibi saylanadi. Konstitutsiyaviy sudni shakllantirishda uchta oliy davlat hokimiyati ishtirok etadi - Konstitutsiyaviy sudning uchta a'zosi Gruziya Prezidenti tomonidan tayinlanadi, uchta a'zo Gruziya parlamenti umumiyligi sonining kamida beshdan uch qismining ko'pchilik ovozi bilan saylanadi va uchta a'zosi Gruziya Oliy sudi tomonidan tayinlanadi. Konstitutsiyaviy sud a'zosining vakolat muddati - 10 yil. Konstitutsiyaviy sud sudyasi ilgari ushbu lavozimni egallamagan bo'lishi kerak.

Konstitutsiyaviy sud a'zolari o'z vazifalarini bajarishda mustaqildirlar. Ular haqiqiy faktlarni baholaydilar va faqat Gruziya Konstitutsiyasi asosida qarorlar qabul qiladilar. Ularning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yib bo'lmaydi va qonun bilan jazolanadi. Konstitutsiya Konstitutsiyaviy sud a'zosining shaxsiy daxlsizligini ta'minlaydi. Qonun hujjatlarida sud a'zosining mustaqilligini ta'minlashning boshqa kafolatlari ham nazarda tutilgan.

Konstitutsiyaviy sud o'z a'zolari orasidan Prezidentni 5 yil muddatga saylaydi. Konstitutsiyaviy sud Prezidenti lavozimini egallab kelgan shaxs qayta saylanmaydi. Konstitutsiyaviy sud raisligiga nomzod Konstitutsiyaviy sudning kamida uch nafar a'zosi tomonidan uning vakolat muddati tugagandan yoki sud raisi sifatidagi vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgandan keyin ikki hafta ichida taklif etilishi mumkin.

Konstitutsiyaviy sud apparati sudga huquqiy, tashkiliy, kadrlar bilan bog'liq aloqa, moliyaviy va moddiy-texnikaviy masalalarni ta'minlashda yordam beradi.

Konstitutsiyaviy sud apparati quyidagi bo‘linmalardan iborat: Sud kotibiyati, Huquqiy ta’minot va tadqiqotlar bo‘limi, Tashkiliy bo‘lim, Iqtisodiyot bo‘limi, Kadrlar bo‘limi, Sud ijrochilari bo‘limi.

Gruziya Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat organini ilmiy va nazariy tahlil etadigan bo‘lsak, biz ko‘plab ijobiy holatlarni ko‘rishimiz mumkin. Bunday ijobiy holatlar zamirida huquq ustuvorligi, insonning asosiy va ajralmas huquqlarini ta’minalash, konstitutsiyaviy nazorat organi orqali ijtimoiy adolatni ta’minalash kabi asosiy me’zon va me’yorlarni ajratib o‘tishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bizning konstitutsiyamiz ham ko‘plab ijobiy yutuqlarni o‘zida mujassam etgan. Lekin jahon konstitutsiyaviy sud amaliyotiga qaraydigan bo‘lsak, bizning konstitutsiyaviy sudimizning vakolatlari ancha cheklanganligi va uni shaklantirish tartibi ancha yanada demokratlashtirish kerakligini ko‘ramiz, xususan, Konstitutsiyaviy sudni shakllantirish tartibiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning tarkibini shakllantirishda umumiy prinsip mavjud emas, jahon amaliyoti va Gruziya konstitutsionalizm an’analariga muvofiq milliy konstitutsiyaning himoyasini amalga oshiruvchi organ hokimiyatlarning bo‘linish prinsipi ko‘ra yaratiladi, unga binonan konstitutsiyaviy sud tarkibi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini tomonidan shakllantiriladi lekin bizda bu an’ana bilvositalik asosidadir. Huquq ustuvorligi an’anasiga ko‘ra uchta hokimiyat tomonidan saylangan konstitutsiyaviy sud hech qaysi organga bo‘ysunmasdan faqat milliy konstitutsiyaga bo‘ysunish tamoyili belgilab qo‘yilgan bo‘lishi lozim.

Gruziya Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiayviy sudi faoliyatini ilmiy o‘rganish natijasida quyidagi fikrlar va mulohazalarni berib o‘tish lozim.

Birinchidan, Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tarkibini shakllantirish bevosita Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati tomonidan amalga oshirish (teng ulushlarda);

Ikkinchidan, unga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat etuvchi subyektlar qatoriga jismoniy va yuridik shaxslar, mahalliy davlat hokimiyti oганларини киритиш;

Uchinchidan, davlat hokimiyat organlarini o‘rtasida konstitutsiyaviy huquqiy munosabatdan kelib chiqadigan har qanday nizo bo‘yicha sudlov ishlari Konstitutsiyaviy sud doirasida muhokama va hal etish;

To‘rtinchidan, xalqaro shartnomaning konstitutsiyaga muvofiqligi yuzasidan murojaat etuvchi subyektlar qatorini aniq va qonun doirasida belgilash;

Beshinchidan, tegishli shikoyat asosida parlament a’zosining vakolatlarini tan olish yoki muddatidan oldin tugatish to‘g‘risidagi parlament qarorining Konstitutsiyaga muvofiqligini ko‘rib chiqish;

Oltichidan, har qanday siyosiy partiya faoliyatini to‘xtatib turish yoki uni tugatsih

masalasini Konstitusiyaviy sud doirasida hal etish, chunki davlat hokimiyati organlari va siyosiy partiyalar o‘rtasida vujudga keladigan munosabat sof konstitutsiyaviy munosabatdir;

Yettinchidan, konstitutsiyaviy sud faoliyatini samaradorligini oshirish uchun sud ijrochilari bo‘limini tashkil etish.

Umuman olganda, har qanday jamiyatdagi davlat hokimiyati oганлари tuzilmasini tashkil etsih tadrijiy asoda amalga oshiriladi, so‘ngi yillardagi mamalakatimizda o‘tkazilayotgan siyosiy islohotlar ham mana shuni maqsad qilib olgan, lekin mamlakatda barqarorlikni qaror toptirish, ijtimoiy adolatni o‘rnatish, kuchli demokratik jamiyat barpo qilishda, albatta, sud hokimiyatining o‘rni beqiyosdir, shuni hisobga olganda hozirgi konstitutsiyaviy sud faoliyatini o‘rganib, Gruziya Respublikasi konstitutsiyaviy sudi faolyati bilan qiyosiy tahlil etgan holda, konstitutsionalizmning umumiy prinsiplari asosida ikkala konstitutsiyaviy sud faoliyatini bog‘lab O‘zbekiston Respubliksi Konstitutsiyaviy sudi faolyatini yangi bosqicha olib chiqish va uning chinakam Milliy konstitutsiyamiz va fuqarolarimizning haqiqiy himoyachsiga aylanishini ta’milashdan iboratdir.

Foydalilanilgan normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Gruziya Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. Constitutional Law of Georgia No 1324 of 13 October 2017 – website, 19.10.2017
4. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni.

Internet manbalari:

1. <http://www.konstsud.uz/oz/docs/konstitutsiyaviy-sudi-qarorlari>
2. <https://matsne.gov.ge/en/document/view/30346?publication=36>
3. <https://www.constcourt.ge/en>
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Constitutional_Court_of_Georgia